

«Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvarlik loyihasida ishtirok etish istagini tasdiqlash va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik

«Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvarlik loyihasida (keyingi o'rinlarda – «Loyiha») ishtirok etishga hamda quiz.atomforyou.com sayti ma'muri bo'lgan (keyingi o'rinlarda – «Loyiha tashkilotchisi») Atom energiyasi bo'yicha axborot markazlarini rivojlantirish, «Kelajak Energiyasi» avtonom notijorat tashkilotining («Kelajak Energiyasi» ANT, manzil: 117105, Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahri, Varshava shossesi, 3-uy) Loyihasida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish vaqtida o'zim tomondan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarimni avtomatlashtirilgan, avtomatlashtirilmagan, aralash tarzda (keyingi o'rinlarda – «Qayta ishlash»), shu jumladan, Loyiha tashkilotchisi topshirig'iga binoan o'zga shaxslar tomonidan qayta ko'rib chiqilishiga rozilik beraman. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga ularni to'plash, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, taqdim etish, yuborish, shaxsiyatni mavhumlashtirish, bloklash, yo'q qilish kiradi. Qayta ishlash jarayonida Loyiha tashkilotchisi Loyihani tashkil qilish va o'tkazishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarga Shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash sharti asosida berish huquqiga ega.

Ushbu Loyihada ishtirok etish doirasida meni xabardor qilish, xabarlar yuborish, taklifnomalar yo'llash, sovg'alar va Loyihadagi ishtirokim bo'yicha boshqa natijalarni yetkazish uchun Loyiha Qoidalariga muvofiq mening Shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga rozilik beraman.

Shu bilan men shaxsiy ma'lumotlarimni 31.12.2022 yilgacha qayta ishlanishiga rozilik beraman.

Shu bilan quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqilishiga rozilik beraman: ismi-sharif, tug'ilgan sana, amaldagi telefon raqam va elektron manzil, foydalanayotgan xos (unikal) qurilmaning tarmoq manzili, Loyiha doirasidagi ishtirokimning natijalari (to'plagan ballar ko'rinishida). Shuningdek, viktorinadagi ishtirokimga oid ism-sharif va to'plagan ballarim ko'rinishidagi ma'lumotlarni Loyihaning quiz.atomforyou.com. sayti orqali e'lon qilinishiga qarshi emasman.

Shuningdek, atom sohasida ishlayotgan xodim bo'lishimga qaramasdan, ish joyim va egallab turgan lavozimimga taalluqli ma'lumotlarni Qayta ishlashga rozi ekanligimni tasdiqlayman.

Loyihada ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kirish jarayonida taqdim etgan shaxsimga doir ma'lumotlarning haqiqiy ekanligini tasdiqlayman.

Loyiha doirasidagi viktorinada ishtirok etib eng yuqori ball to'plagan taqdirimda sovg'ani olish uchun imzolangan Rozilikning skaner qilingan nusxasini taqdim etishim zarurligi to'g'risida ogohlantirildim.

117105, Rossiya, Moskva sh, Varshava shossesi, 3-uy manziliga tegishli bildirishnoma yo'llash orqali shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga bergan roziligimni to'la yoki qisman qaytarib olishim mumkinligi to'g'risida ogohlantirilganman.

Shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga bergan roziligimni qaytarib olish bilan Loyihada ishtirok etish, shu jumladan sovg'aga ega bo'lish huquqidan maxrum etilishim to'g'risida ogohlantirilganman.

Shuningdek, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq har qanday xabarlarni qabul qilib olishga rozilik bildiraman.